



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

XX ASR 70 YILLARIGA QADAR O‘ZBEKISTON ARXEOLIGIYASINING FAN SIFATIDAGI AHVOLI.

Jamol Yuldashev - Jizzax viloyat pedagoglarni
yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr 70 yillariga qadar O‘zbekiston arxeologiyasining muvaffiqiyatlari, rus va o‘zbek arxeolog olimlarning ilmiy izlanishlari, ibtidoiy jamoa davri yodgorliklarining puxta o‘rganganligi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: arxeologiya, Afrosiyob, Jonbosqal’a, obida, ekspeditsiya.

Abstract: This article provides information on the achievements of Uzbekistan's archeology from the second half of the 19th century to the 70s of the 20th century, the scientific research of Russian and Uzbek archaeologists, and the detailed study of the monuments of the primitive community.

Key words: archeology, Afrosiyob, Jonboskala, monument, expedition.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о достижениях археологии Узбекистана со второй половины 19 века до 70-х годов 20 века, научные исследования российских и узбекских археологов, подробное изучение памятников первобытного общества.

Ключевые слова: археология, Афросиаб, Джонбоскала, памятник, экспедиция.

Arxeologiya tarixning bir bo‘limidir. Tarix fani tarixiy, yozma va moddiy manbalarni o‘z ichiga oladi. Moddiy manbalarning o‘ziga xos xususiyatlari ularning alohida mutaxassislar, ya’ni arxeologlar tomonidan o‘rganilishini zurrur qilib qo‘yadi.

XX asr boshida mashhur ingliz arxeologi G.Chayld ta’kidlaganidek: “arxeologiya fan sifatida o‘tmishning cheksiz ufqlarini ko‘rishni shu darajada kengaytirdi, tarixshunoslikda o‘tmishni o‘rganish imkoniyatlarini yuzlab karra oshirdi”- degan edi.

Qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston moddiy-madaniyat yodgorliklariga nihoyatda boydir. O‘zbek xalqining uzoq o‘tmishdan qolgan tarixiy obidalarini o‘rganish, XIX asrning ikkinchi yarmida, O‘rta Osiy chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng boshlangan bo‘lsa-da, Vatanimiz hududida arxeologik tadqiqotlar va moddiy madaniyat yodgorliklarini ilmiy asosda

har tomonlama chuqur tekshirish ishlari XX asr birinchi yarim yilligida keng ko‘lamli amalga oshirildi.

XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekistonning turli hududlarida qator muhim arxeologik tekshirishlar o‘tkazildi. 1925-1930 yillarda Samarqandda V.L.Vyatkin, 1926-1928 yillarda Termizda B.P.Danike, 1925-1928 yillarda Ohangaron vodiysida M.E.Masson, 1929-1930 yillarda esa A.A.Potapov hamda 1930-1933 yillarda Farg‘ona vodiysida B.A.Latininlar qazish va qidiruv ishlari olib bordilar.

1930 yillarning ikkinchi yarmida Moskva, Leningrad va O‘zbekiston olimlarining hamkorligida bir nechta arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etiladi. A.Yu.Yakubovskiy boshliq Zarafshon (1934 y); M.E.Masson rahbarligida Termiz (1936 y) va S.P.Tolstov boshliq Xorazm (1937 y) arxeologik ekspeditsiyalari shular jumlasidandir.

1945 yildan sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi ishga tushdi. 1946-1948 va 1950-1952 yillarda A.N.Bernshtam boshliq Pomir-Oloy va Pomir-Farg‘ona ekspeditsiyasi Farg‘ona arxeologiyasini o‘rgandi. A.G‘.G‘ulomov va V.A.Shishkinlar rahbarligida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining O‘zbekiston arxeologiya ekspeditsiyasi ish boshladi. Bu ekspeditsiyaning ko‘pgina otryadlari Samarqand, Buxoro va Toshkent vohalarida hamda Farg‘ona va Surxondaryo vodiylarida arxeologik qazishlar o‘tkazdi.

O‘zbekistondagi eng qadimgi shaharlardan biri –Samarqandni tarixiy va arxeologik jihatdan har tomonlama chuqur o‘rganish maqsadida 1966 yilda V.A.Shishkin boshliq Afrosiyob arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi. Keyinchalik ushbu ekspeditsiyaga O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Ya.G‘.G‘ulomov rahbarlik qildi. (1967 y) Bulardan tashqari keyingi yillarda juda ko‘p maxsus arxeologik otryadlar tashkil etilib, Chimqurg‘on, Janubiy Surxon, Tuyabug‘oz suv omborlari va Chorvoq GESi zonasida hamda Amu-Buxoro, Amu-Qarshi va Markaziy Farg‘ona kanallari trassasida arxeologik tekshirishlar olib borildi.

Arxeologik olimlar A.P.Oklandikov, S.P.Tolstov, Ya.G‘.G‘ulomov va boshqalarning ko‘p yillar davomida olib borgan arxeologik tadqiqotlari tufayli O‘zbekiston arxeologiyasining paleolit, neolit, bronza davrlari puxta o‘rganildi.

Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg‘ona, Samarqand, Toshkent va boshqa joylarda o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar O‘zbekistonda quldorlik va feodalizm davr arxeologiyasini o‘rganishda juda boy va qimmatli materiallar berdi. Arxeologlar tomonidan topilgan muhim yodgorliklar, ayniqsa moddiy-madaniyat yodgorliklari O‘rta Osiyo xalqlari qadim zamonlardayoq yuksak va o‘ziga xos madaniyatga ega ekanini va jahon xalqlari madaniyatiga ma’lum hissa qo‘shganini shubhasiz fakt deb tasdiqlashga imkon beradi.

1938-1939 yillarda A.P.Oklandikov tomonidan O‘zbekistonning muste davri yodgorliklaridan biri Teshiktosh g‘or makoni topib o‘rganildi. Ushbu topilma muste davri bo‘yicha juda ko‘plab qimmatli ma‘lumotlarni berdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Jonbosqal’a yaqinidagi S.P.Tolstov tomonidan topib tekshirilgan neolit davri yodgorligi fanda “Kaltaminor” madaniyati deb nom oldi. Bu madaniyatga mansub bo‘lgan yodgorliklardan 60 dan ortiqrog‘i 1950-1966 yillar oralig‘ida Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridan topib o‘rganildi.

Mustaqil arxeologik tadqiqotlarni Ya.G‘ulomov ilk bor 1936 yilda qadimgi Xorazm yerlarida havaskor arxeolog do‘sti T. Mirg‘iyosov bilan birgalikda boshladi. 1937 yilda uning guruhiga arxeolog A.I.Terenojkin va arxitektor B.N. Zasipkinlar jalb etildi.

Ya.G‘ulomov qadimgi Xorazm yerlarida saqlanib qolgan son-sanoqsiz arxeologik yodgorliklar, bu ko‘hna o‘lkani qachonlardir obi hayot bilan ta‘min etgan ko‘hna sug‘orish tarmoqlarining quruq o‘zanlari va atrofda sochilib yotgan turli-tuman arxeologik topilmalarni o‘rganar ekan, dehqonchilik xo‘jaligining asosi hisoblangan sug‘orish tarixi bilan jiddiy shug‘ullanishni ilmiy-tadqiqotlarining o‘zagi sifatida qaraydi. Chunki, O‘rta Osiyoning qadimgi madaniyat maskanlaridan biri hisoblangan Xorazmning o‘zlashtirilib obod etilish tarixi, qadimgi madaniyati va bu o‘lka aholisining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qator masalalarga aniqlik kiritish uchun Xorazmning sug‘orilish tarixini bosqichma-bosqich sinchiklab o‘rganish va katta kuch bilan keng ko‘lamdagi tadqiqotlarni amalga oshirish zarur edi.

Ya.G‘ulomov Xorazm vohasida qal’a, qo‘rg‘on eski shahar xarobalarini o‘rganishda go‘yo ochiq usuldagi muzey-qo‘riqxonasi sifatida turgan, turli davrlarda qurilgan me‘moriy komplekslarga boy Xiva shahriga, uning obidalariga alohida e‘tibor qaratadi, ular ustida ko‘plab tadqiqotlar olib boradi. Bu izlanishlarning natijasi 1941 yilda Ya.G‘ulomov qalamiga mansub “Xiva shahri obidalari” nomli kitobi bosilib chiqadi.

1965 yili Afrosiyob yodgorligida ilk o‘rta asrlardagi Samarqand hokimi Varxumanning muhtasham saroyi ochiladi. Saroy devorlari takrorlanmas rang tasvir suratlar bilan bezatilgan edi. Lekin respublikada ushbu qimmatli topilmalarni yuksak saviyada ko‘chirib oladigan tajribali ta‘mirchi, san‘atshunoslar yetishmas edi. Topilmalarni ochish ma‘lum muddatda kechiktiriladi. 1966 yilda Ya.G‘ulomov O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix va Arxeologiya instituti qoshida kimyo-texnologiya tadqiqotlari va konservatsiyalash laboratoriyasini tashkil etilishiga juda katta hissa qo‘shdi. Ushbu laboratoriyada olimlar ishlab chiqqan kimyoviy ta‘mirlash usullari tufayli ko‘pgina san‘at obidalari, jumladan, jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan Afrosiyob, Varaxsha, Zartepa, Tovqa, Jartepa tasviriy san‘at

asarlari, Sopollitepa, Kuyovqurg'on haykallari, turli yozuv madaniyati namunalari saqlab qolindi va xalqimizning madaniy merosiga aylantirildi.

O'zbekistonda keng ko'lamda olib borilgan arxeologik izlanishlar tufayli O'rta Osiyoning qadimiy madaniyat markazlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent vohalarida, Farg'ona va Surxondaryo vodiylarida O'rta Osiyo xalqlari tarixining turli bosqichlariga oid juda ko'p nodir moddiy madaniyat yodgorliklari topib o'rganildi. Arxeologik yodgorliklarni keng ko'lamda va muntazam ravishda o'rganish ularning davrini aniqlab olish imkonini beribgina qolmay, balki O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p masalalarni yechib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.V.Arsixovskiy. Arxeologiya asoslari. O'qituvchi Toshkent. 1970.
2. O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish konsepsiyasi //O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi // 32-nashr 2001.
3. T.Sh. Shirinov, M.H.Pardayev, J.K.Mirzaahmedov. Akademik Ya.G'.G'ulomovning hayot yo'li va ilmiy merosi. //O'zbekiston moddiy madaniyat tarixi// 29-nashr. Samarqand. 1998.